

O‘ZBEKISTONGA JALB QILINAYOTGAN INVESTITSİYALARNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO‘YICHA TAHLILI

Bakiyeva Iroda Abdushukurovna

Аннотация: Ushbu maqolada iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy manbalari, ularning turlari, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi, ularning moliyaviy jihatdan tarkibi yoritilgan.

Калит со‘злар: Investitsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, jamg‘armalar, moliyaviy samaradorlik, korxonalarining iqtisodiy foydasi, kreditlar, davlat qarzi, davlat kafolati ostidagi investitsiyalar.

Аннотация: В данной статье описаны финансовые источники привлечения инвестиций в экономику, их виды, а также объем инвестиций, привлекаемых в экономику Узбекистана, их финансовая структура,

Ключевые слова: Инвестиции, прямые иностранные инвестиции, сбережения, финансовая эффективность, экономическая прибыль предприятий, кредиты, государственный долг, инвестиции под государственную гарантию.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Bunday yuqori darajadagi e‘tibor va mas‘uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvorstrategik manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro‘yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko‘lamli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta‘minlanadi, biroq, bu tadbirlarni ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo‘lmasligini nazarda tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o‘shini ta‘minlovchi bosh omil sifatida e‘tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiyotda investitsiyalardan samarali foydalanish ularni moliyalashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Investitsiyalarni moliyalashtirish esa, tabiiyki, investitsiya faoliyati asosida amalga oshiriladi.

Umuman olganda, investitsiyalarni amalga oshirish investitsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda investitsiya resurslari hosil qilinishi natijasiga tayanadi va yuz beradi. O‘z navbatida, u investitsiyalashdan ko‘zlangan maqsadga bevosita bog‘lanadi. Zero, ko‘zlangan maqsadga erishish ishtiyoqi investorni kapital to‘plab, so‘ng uni shu maqsad yo‘lida safarbar etishga undaydi. Zotan, maqsad muayyan natijaga qaratilar ekan, natija ham o‘z navbatida, muayyan maqsadlarni keltirib chiqaradi va tegishli investitsiya jarayonini aks ettiruvchi ketma-ketlikni hosil qiladi. Investitsiyalarning bu tarzda harakatlanishi investitsiya faoliyati orqali yuz beradi. Shunday ekan, investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari va ularning qaysi birini ko‘proq jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Investitsion faoliyatni moliyalashtirishning nazariy-ilmii, uslubiy va amaliy muammolari chet ellik olimlardan R.Stobaugh, R.Stoun, N.Abikayev, V.D.Andrianov, B.C.Bard, S.N.Buzulukov, I.N.Drogobitskiy, S.YE.Shepetova, A.B.Bel’skiy, N.Berzon, Y.I.Vernadskiy, O.V.Tereshenko, V.V.Bocharov, E.I.Krilov, V.M.Vlasova, M.G.Yegorova, D.A.Lavrik, M.M.Prusak, N.M.Sabitova, V.Savelyev¹, kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi sharoitda mamlakatda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan uni moliyalashtirishning ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan holda yanada takomillashtirish bo‘yicha tizimli qarorlar qabul qilishga bog‘liqdir. Shu bilan birga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini bevosita investitsiyalardan foydalaniluvchi mintaqalar doirasida takomillashtirish

¹ Stobaugh R. How to Analyze Foreign Investment Climates. -Harvard Business Review, September October 1969.- p.189. Stoun R. Social Account at the Regional Level: a Survey. In: Regional Economic Planning. Techniques of Analysis for Less Developed Areas / Ed. By W.Isardand J.Camberland. OECD. Paris, 1961; Abikayev N. Investitsionniy potentsial i ekonomicheskii rost (metodologicheskii aspekt) //Ekonomist. 2000. - No 6. - S. 58-66.; AndrianovV.D. Rossiya: ekonomicheskii i investitsionniy potentsial. M.:OAO«Izdatelstvo «Ekonomika», 1999. - 662s.;

masalasi ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzab hisoblanadi.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar D.G.G‘ozibekov, N.G‘.Karimov, N.X.Jumayev, F.O‘.Dodiyev, N.R.Qo‘ziyeva, N.X.Xaydarov, Sh.Mustafaqulov, R.B.Saidov, E.I.Nosirov² va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Tahlil va natijalar

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 352,1 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 66,4 % yoki 233,8 trln. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 33,6 % yoki 118,3 trln. so‘m moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 44,8 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 307,3 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi (1-rasm).



² Mustafakulov Sh.I. O‘zbekistonda investitsionmuhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (DSc). diss. avtoreferati. T., 2017.; Saidov R.B. O‘zbekiston Respublikasi uy xo‘jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2011.-18 b.; G‘ozibekov D.G‘., Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: IQTISOD-MOLIY, 2007. – 92 b.

1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (trln.so'mda)³

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 84,9 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,1 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 % i yoki 33,3 trln. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 84,3 trln. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 9,1 % punktga ko'payib, 24,0 % ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi⁴

	Moliyalashtirish manbalari	Hajmi, trln.so'mda	O'sish sur'ati, otgan yilga nisbatan foizda
1.	Respublika budjeti	20,4	88,6%
2.	Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	82,4	129,2%
3.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1,6	58,4%
4.	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	21,2	130,3%
5.	Korxonalar mablag'i	84,9	97,3%
6.	Aholi mablag'lari	33,3	108,9%
7.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	84,3	196,4%
8.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	22,3	117,9
9.	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1,7	52,9%

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari hisobidan 22,3 trln. soʻm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,3 % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga koʻpaydi), Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 21,2 trln. soʻm (6,0 % va 0,3 % punktiga koʻpaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 82,4 trln. soʻm (23,4 % va 1,2 % punktga koʻpaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi 1,6 trln. soʻm (0,4 % va 0,5 % punktga kamaydi), Respublika budjeti 20,4 trln. soʻm (5,8 % va 2,2 % punktga kamaydi), Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi tomonidan 1,6 trln. soʻm (0,5 % va 0,6 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot xulosalari va natijalarining amaliy ahamiyati investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlaridan alohida mintaqalarda investitsion faollikni va mintaqaning investitsion jozibadorligini jonlantirishda, xorijiy va mahalliy investorlar mablagʻlari asosida investitsiya loyihalarini joriy etish hamda ular faoliyatini optimallashtirish borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish jarayonida foydalanish mumkinligi orqali namoyon boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublika sining Qonuni. 2019 - yil 25 - may, 598 - son. T.: «Oʻzbekiston».
2. A.U.Burxanov, Sh.X.Muminov, X.X.Xudoyqulov. Investitsiya va innovatsiyalar. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. – 462 b.
3. X.X.Imomov. Investitsiya. (Darslik). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022,408 b.
4. Oʻzbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish hajmi va tarkibi 2023-yil yakuni boʻyicha hisobot. www.stat.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha 2023-yil yakuni uchun hisobot. www.stat.uz.
6. <http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
7. <http://www.worldbank.uz> – Jahon bankining rasmiy internet sayti.
8. <http://www.imf.org> – Xalqaro valyuta fondining rasmiy internet sayti.